BOSHLANG` ICH SINF O`QUVCHILARIDA ONA TILI VA CHET TILI TA`LIMIDA O`QISH TEXNIKASINING AHAMIYATI, BADIIY MATNLAR ORQALI IKKINCHI TILNI O`RGANISH

Surayyo Muminova Xayitmaxmatovna,

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 20-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, magistr

Annotatsiya: Ushbu maqola rusiyzabon bo`lmagan bolalarda rus tilini badiiy matnlar orqali o`rganish va ,asosan, tilning o`qib tushunish va tinglab tushunish ko`nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg`ulotlar hamda sinov natijalari orqali olingan xulosalarni o`zida jamlaydi. Ilk sinov natijalaridan shunday xulosa kelib chiqadiki, o`qib tushunish, yozish va tinglab tushunish kabi til ko`nikmalarining sifatli o`zlashtirilishi uchun bola ona tilida ham, o`rganayotgan tilida ham yaxshi o`qish texnikasiga ega bo`lgandagina kutilgan natijaga erishiladi.

**Kalit so`zlar:** Til ko`nikmalari, o`qib tushunish, tinglab tushunish, o`qish texnikasi, ikkinchi til, badiiy matnlar, matnni xulosalay olish.

Annotation: This article summarizes the conclusions obtained in non-Russian children through training and test results aimed at learning the Russian language through artistic texts and ,mainly, developing the skills of reading and listening to the language. From the results of the first test, it follows that the expected result is achieved only when the child has a good reading technique, both in his native language and in the language he is learning, for the qualitative acquisition of language skills, such as reading, writing and listening comprehension.

Keywords: language skills, reading comprehension, listening comprehension, reading techniques, second language, artistic texts, text inference.

Bolalarda til o`rganish jarayoni, hatto u ona tili bo`lsa-da, nega hamisha ham muvaffaqiyatli kechmaydi? “Tilni bilish”, “tilni egallash”, “tilni o`rganish” degan tushunchalarimiz ortida , avvalo, uni yaxshi saviyada o`zlashtirish nazarda tutiladi. Boshqa fanlar kabi til ta`limi ham uzluksiz va izchil shug`ullanishni talab etadi. Lekin bolalardan “Isming nima?”, “Yoshing nechada?”, “Ahvollaring qanday?”



kabi oddiy savollarni ham o`zga tilda berib ko`rilganda ular juda zerikib javob berishadi, keyingi mashg`ulotda xuddi shu dialog muvaffaqiyatli tuzilmaydi, chunki bola bu gaplarni eslay olmaydi yoki qiynalib eslaydi. Jarayon bosqichma - bosqich , izchil, tizimli davom ettirilganda ham bola buni xohish va qiziqish bilan bajarmaydi. Natijada uzoq va samarasiz til o`rganish ona tilini ham, ikkinchi tilni ham yomon o`zlashtirishga olib keladi. Bu muammoga yechim topish uchun inson o`z ona tilini qanday o`zlashtiradi, degan jumboq atrofida izlanish lozim bo`ladi. Chunki „… dunyoda har 5 odamdan birining nutqida nimadir risoladagidek emas, barchada esa ma`lum nutqiy og`ishlar bor“. Ammo bu izlanish tilni tabiiy ravishda o`rganish jarayoni haqidagi masalalarni ochiqlaydi. Biz esa tilni sun`iy, ya`ni ikkinchi til sifatida o`rganishning qiziqarli va osonroq yo`llari haqida xulosalarni olmoqchimiz.

Ba`zi tajribalar natijasida „… bola ikkitillilikni qancha erta boshlasa, u har ikki tilni bir xil darajada o`rganadi va bir til ikkinchisidan dominantlik qilmaydi“ (“Особенности выражения мыслы на разных языках” С. Б. Корсак), degan xulosalarga kelingan. Ammo bunda ikkinchi til qay yo`l bilan egallanyapti - tabiiymi yoki sun`iymi, albatta, shu jihati ham katta ahamiyatga ega.

Badiiy matnlar orqali ikkinchi tilni o`rganish eng maqbul va samarali usul ekanligi butun dunyoda e`tirof etilyapti. Inchunun, 500 dan ortiq izlanishlarining barchasi ham har qanday til tabiiy tarzda o`rganilsagina ta`lim jadallashadi va unumli (produktiv) amalga oshadi, degan fikrni ilgari suruvchi Kolumbiya universiteti professori Stiven Krashenning faraziga ko`ra o`rganilayotgan tilda mutolaa qilish bu „sehrli habdoridir“. (Krashen. S. (2003). Explorations in Language Asquisition and Use. Portsmouth: Heine mann). „ Sayyoramizda birorta inson yo`qki, akademik tilni lug`at yoki grammatika orqali o`rgangan bo`lsin. Faqat bitta ishlaydigan usul bor - bu ham bo`lsa mutolaadir“.(8) Chet tilini o`rganish usullari talablarga ko`ra tinimsiz o`zgarib bormoqda. Bu o`zgarishlarga qarab adabiy asarlar chet tilining asosiy manbasi bo`lish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. (9) Chunki „Adabiyot tillar uchun ajralmas



hisoblanadi“.(Medni.2010) Mashhur poliglot Stiv Kaufman o`rgangan tillari orasida eng murakkabi qatoriga kirituvchi rus tili bilan 60 yoshida shug`ullangan. Uning e`tiroficha, rus tilida birinchi badiiy asari Lev Tolstoyning «Крейцерова соната»si bo`lgan. Uning kutubxonasida Chexov, Kuprin, Turgenev, Pushkin va boshqalarning asarlari bo`lib, Tolstoy va Chexovning audiokitoblarini kuniga 3-5 soatgacha tinglagan. (Chris Betros. https;//japantoday/com/category/features/executive-impact/youre-never-too-old-to-learn-a-new-language) Albatta, o`rganilayotgan tilda adabiyot o`qitishda hamisha ham klassiklarga murojaat qilish o`zini oqlamaydi. Bu o`rganuvchining tilni qay darajada egallaganiga, saviyasi va badiiy so`zga munosabatiga ham bog`liqdir. Qolaversa , matn zamonaviy adabiy tilda bo`lishi maqsadga muvofiq. Biz ushbu maqolamizda ikkinchi tilni bola badiiy matn orqali yaxshiroq o`zlashtiradi, birikmalar hamda gaplar qiziqarli syujet va fikrlar orqali (albatta, uning yoshiga mos matnlarda ona tilidagi to`liq tarjimasi bilan) tabiiyroq, yengilroq o`rganiladi, degan fikrimizni tajribada sinab ko`rib, olingan xulosalarni taqdim etmoqchimiz. Aynan o`rganuvchining yoshiga mos matnlarda ona tilidagi to`liq tarjimasi va o`quvchining tildan xabardorlik darajasi bizga shuning uchun ahamiyatliki, „Adabiy matnlar o`quvchilar talabi, ularning maqsadi, hayotiy tajribasi, ta`limiy saviyasi va tilni qanchalik bilishiga ko`ra tanlanishi kerak“ (5) degan fikr tarafdorimiz. Matnlar o`quvchining o`qish saviyasiga mos bo`lsa, ularda qiziqish va ishtiyoq uyg`ota olsa, maqsadga muvofiq bo`ladi.

Badiiy matnlar bilan sinov guruhlarida ishlash tajribalari ham talaygina bo`lib , ulardan ko`zlangan maqsadlar va sinov guruhlarining yoshi, ta`lim shakli va usullari turlicha . Ingliz tili chet tili sifatida o`rganiladigan Bangladesh universiteti talabalari bilan o`tkazilgan tadqiqotda badiiy adabiyotning til ko`nikmalari (o`qib tushunish, tinglab tushunish, yozish va gapirish)ga ta`siri o`rganilgan. 30 nafar sinov guruhi a`zolaridan 28 nafari ilk so`rovnomadayoq ingliz tilini badiiy adabiyot bilan o`rganishni ma`qul deb topishgan. 70 % respondentning so`rovnomadagi fikriga ko`ra til ko`nikmalari orasida ular uchun



eng murakkabi tinglab tushunish bo`lsa-da ular ingliz tilidagi adabiy janr namunalari (hikoya, roman, drama, masallar)ni o`qib , tilni amalda qo`llashni o`rganish eng serunum, qiziqarli va oson deb hisoblashgan.(5) Muallifning fikriga ko`ra voqeiy (autentik) matnlar (ya`ni badiiy asarlar) tilni tezroq va ta`sirliroq o`zlashtirilishiga yordam beradi. Ushbu tadqiqotda rolli o`yinlar, suhbat, anketa bilan ishlash, guruh bo`lib ishlash, fikr almashish, axborot bo`shliqlarini to`ldirish, vizual ta`sirlar va boshqa usullardan foydalanilgan.

Keyingi tadqiqot universitetda chet tilini o`rganayotgan talabalar tomonidan o`rganilayotgan til bilan bog`liq adabiyot kursini va kursning o`qitish uslubini tadqiq etishga qaratilgan. (9) Senem Soyerning ushbu tadqiqotida kommunikativ yondashuvga asoslangan, talabalar faolroq rol o`ynaydigan o`qitish uslubiga ustunlik berilgan va ijodiy drama usulidan foydalanilgan. (Qriqqal`a universiteti San`at va fanlar fakulteti arab tili tarjima va tarjimonligi bo`limida tahsil olayotgan talabalar bilan olib borilgan zamonaviy davr arab adabiyoti kursi va o`qitish metodikasi ko`rib chiqilgan).

„O`quvchilarim bilan o`tkazgan tajribalarim va suhbatlarimdan ularning ko`pchiligi mutolaani odat qilmaganlari tufayli tildan yaxshi foydalana olmaganlari va tasavvurlari ham boy emasligini ko`rganman“, deydi tadqiqotchi Celkan Go`l. (11) Uning tadqiqotida sinov guruhi aynan kichik yoshdagi bolalar edi. Tadqiqotchi o`quvchilar bilan Jyul Vernning „Dunyo bo`ylab 80 kun“ va „Oyga sayohat“ asarlarini o`rganib o`qish sevgisi va odatlari faqat kichik yoshdan hosil qilinganda til ta`limi va bilish jarayonini tezlashtiradi, rivojlantiradi; bolalar adabiyoti bolaning til bilish hamda ijtimoiy rivojlanishiga katta ta`sir ko`rsatadi, degan xulosalarni oladi. „Psixolingvistik va ijtimoiy xususiyatlar haqida gapirganda –o`quv dasturi allaqachon kontekstdadir. Ya`ni, til ta`limi „o`qishni o`rganish“ va „matn va kontekst“dan iborat. (Jonston 2011) (Xuddi shu kabi biz ham rus tilida o`qiy olmagan sinov guruhimiz a`zolarini 2 класс Русский язык (1) darsligi orqali 1,5 oy davomida harflarni o`rgatib, o`qish tezligini 10 ta so`zdan 37-50ta so`zgacha, 6-7 ta lug`at zaxirasidan 100 ta lug`at zaxirasigacha yetkazib



oldik. Asosiy maqsadimiz bo`lgan badiiy matnlar bilan ishlash mashg`ulotlarimizni 30-kundan boshladik).

Tajribalarda 75 % dan yuqori o`qish qobiliyatiga ega o`quvchilar tadqiqot oxirida eng yaxshi natijalar ko`rsatganligi aniqlangan. (Senechal Tomas, Daley (16), Otto (17) Bolalar adabiyoti 3-sinflarda ovoz chiqarib o`qiladi. (Kelly 11) U bolalarning tushunish, muhokama qilish, yozishga bo`lgan qiziqishlarini o`rganadi. “Van Sledright va Kelly (11) o`z tadqiqotida 5-sinf o`quvchilari o`zlari tanlagan kitoblari orqali o`rganish jarayoni ham ularda fikrlash rivojlangani va qaror qabul qilish qobiliyati oshganini ko`rsatgan. Angeletti tadqiqotida esa 20 nafar talaba tomonidan tanlangan kitoblar orqali o`qitish til bilish bilan birga tanqidiy fikrlash va o`qish jarayoniga nisbatan ijobiy xulq-atvorni namoyon etgan” (Chelkan Go`l tahlili). Katarina Ekonomining (10) tadqiqotida esa o`rta maktabning yuqori sinf o`quvchilari o`rtasida shved tilini ikkinchi til sifatida ( L2) o`rganishda badiiy adabiyotning roli ko`rib chiqilgan. Bu tajribada 3 guruhga bo`lingan jami 16 o`quvchi 70 daqiqalik 12 ta darsda ishtirok etgan. O`quvchilar qurama bo`lib, 9 ta ona tiliga ega, ya`ni 9 xil millat. Tadqiqotchini xuddi biz kabi ikkinchi tilda yoki chet tilida oddiy o`qish ko`nikmasiga ega bo`la olmayotgan o`quvchilarning til o`rganishida adabiyotni vositachi qilish qiziqtirgan. U o`z maqsadi uchun yoshlar bilan zamon va makonda teng holatda bo`lgan adabiy qahramonlarni tanlagan. Ya`ni Marjona Baxtiyoriyning eron millatiga mansub shved muhojirlari hayotidan olingan “Buni xohlaganingdek nomla, jin ursin!” nomli zamonaviy romanini audiomatn ko`rinishida eshittirilib o`quvchilarning matnga , adabiy qahramonlarga va ular orqali o`z hayotlariga solishtirish nuqtayi nazaridan esse, og`zaki bahs va qisqa qaydlardagi ishlari orqali xulosalar olingan. Xulosalardan biri shunday edi: Adabiyot ta`limi jamiyatning turli qatlamiga mansub bo`lgan o`quvchilarni birlashtirishi, ularda ikkinchi tilni ham, bola shaxsini ham rivojlantirishga olib boruvchi vosita bo`lishi mumkin . (10) Biz ham badiiy matnlar qiziqarli syujet asosiga qurilganligi, dialoglar so`zlashuv uslubiga yaqinligi hamda harakat bildiruvchi birikmalar keng qo`llanganligi tufayli tilni o`quvchi tayyor holda qabul



qilad i, tanish so`z orqali butun birikmani taxminiy tushunish tilni tabiiy va ongli o`rganish, his qilishga yordam beradi, tilning grammatik xususiyatlarini qoidalar asosida emas, tayyor sintaktik konstruksiyalar (qoliplar) asosida o`rganadi va bu jarayon o`quvchini zeriktirmaydi, deb hisoblaymiz. Badiiy uslubda muallif nutqi o`zini adabiy tilning boy, obrazli, ishlangan holda namoyon etsa, turli adabiy qahramonlar nutqida muallif milliy tilning shirali va jozibador, jonli ko`rinishini aks ettiradi. Badiiy uslubning inson ongigagina emas, uning tuyg`ulariga ham katta ta`siri tufayli o`quvchilarda o`zaro ruhiy-ma`naviy uyg`unlik kayfiyati paydo bo`ladi. Tajribadagi sinov guruhining rus tilidagi va ona tilidagi o`qish tezligi notanish matnni o`qiganda bir daqiqada 50 ta so`zdan ortiq bo`lishi nazarda tutilgan. Ammo to`rt nafar respondentlarimizdan barchasining o`qish tezligi bu talabga javob bermadi. Shu sababdan bir yarim oy davomida (1.11.2022-13.12.2022 gacha) ular bilan o`qish tezligi (ulardan 3 nafari krill alifbosini to`liq bilmaydi, bir daqiqada 10ta so`zdan kam o`qiydi, lug`at boyligi o`rtacha 5-6 ta so`zdan iborat edi), o`qib tushuninsh, tinglab tushunish, yozish, gapirish ko`nikmalari ustida ishlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Русский язык 2 класс. учебник для школ среднего обшего образования с узбекским языком обучения . ташкент 2021

2. Ona tili va o`qish savodxonligi. 2-qism. umumiy o`rta ta`lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. toshkent – 2021.

3. “Dono word” jurnali, 16.04.2019.

4. Алам М.А. И Ашрафуззамон.М. (2018) изучение лексике на высшем уровне: стратегии, методы и материалы. онлайн журнал « новые горизонты в образовании» (tojnedi) 8 (3) .109-117.

5. Ашрафуззамон м. и алам м.а. (2017) стиль использования языка студентами на facebook, мессенжер и электронной почте на уровне высшего



образования в бангладеш (журнал prime universite, dakka) бангладеш, 11 (2)

6. Krashen. s. (2003). explorations in language acquisition and use. portsmouth: heine mann.

7. Чо. К. С. Ан. Ко. и крашен. с. д. (2005) влияние узкого чтения аутентичных текстов на интерес и способность к чтению на английском языке как иностранном.\\

8. Literacy: free voluntary reading. aesthetic reading: efficient enough (journal of english language teasching 62 (2): 3-4 2020) stephen krashen posted: 2020 – 05 – 14

9. Education of foreign language and creative drama. january 2015. international journal of languages education 1 (udes 2015) doi: 10. 18298/ ijlet. 403

10. Reading fiction in a secon language classroom . catarina economu. jan.2015. https://doi.org/10.3042/edui.v6.23991

11. Celkan, gül(2006) çocuk edebiyati’nin dil eğitimi ve öğretimi açisindan önemi. kuzey kibris/north cyprus/северный кипр

12. постнаука.ru. е. протасова, как дети осваивает язык. 2017.18.08

13. М.Р.Львов, В.Г. Горецкий, О.В. Сосновская. Методика преподавания русская языка в начальных классах. 3-е издание, стереотипное. москва «академия» 2007.

14. https: // suberleninka. ru>article> особенности изучения родного и иностранного языка детми и взрослыми . с.с. пашковская. 2010

15. «психология усвоения иностранных языков» электронний учебно-методический комплекс по учебной дисциплине. составитель: н.б.корсак. гомель, 2017

16. Senechal, M.-Lefevre, L.-Thomas & Delay, K.E., (1996), “early exposure to storybooks as a predictorof reading in grade 1”

17. Otto, B. W., (1993), Signs of emergent literasyamong inner-city kindergartners in a storybook reading program, reading and writingquarterly: overcoming learning difficulties 9 (2), 151-162



18. Ur to`qmoq = бей дубинка. a. akbarov tuzuvchi. – toshkent: “zukko kitobxon” nashriyoti, 2022. – 16 b.

